

“Gerbariy” loyihasi



Gerbariy – quritilgan o‘simliklar to‘plami. Gerbariy tayyorlash orqali siz o‘simlikni yaxshiroq o‘rganishingiz va uyingizda yoz yoki kuzning bir bo‘lagini saqlab qolishingiz mumkin.



Gerbariy qanday tayyorlanadi?



1. O‘simliklarni yig‘ish

- **Qachon yig‘ish kerak?** O‘simliklar ho‘l bo‘lmasligi uchun quruq ob-havoni tanlang.
- **Qayerdan qidirish kerak?** Bog‘ yoki xiyobonlardan qidiring.
- **Nimani yig‘ish kerak?** Turli daraxt barglari, chiroyli gullar, g‘ayrioddiy o‘tlarni yig‘ing.
- **Qanday yig‘ish kerak?** O‘simliklarni qaychi yordamida ehtiyotkorlik bilan qirqib oling.



2. O‘simliklarni quritish

- Yig‘ilgan o‘simliklarni chang va g‘uborlardan tozalab, quriting.
- O‘simliklar bir-biriga tegmasligi uchun har bir o‘simlikni ikkita qog‘oz varag‘i orasiga joylang.
- Bu qog‘ozlar ustiga og‘irroq kitob yoki biror buyumni bostirib qo‘ying.
- O‘simliklarni 1–2 hafta davomida quriting. Agar qog‘ozlar nam lanssa, vaqt-vaqti bilan ularni almashtirib turing.



3. Gerbariyni bezash

- Albom, daftar yoki alohida karton varaqlardan foydalaning.
- Quritilgan o'simliklarni varaqlarga ehtiyotkorlik bilan yelimlang.
- Har bir o'simlik ostiga uning nomini va qayerda o'sganligini yozing.
- Gerbariyni kim tayyorlaganini uning ostiga yozib qo'yish zarur.



Gerbariy tayyorlash qiziqarli mashg'ulotlardan

biri bo'lib, u atrof-muhitni yaxshiroq bilish va diqqatni rivojlantirishda sizga yordam beradi.

O'zbekistondagi Botanika institutida bir yarim milliondan ortiq quritilgan o'simlik nusxalari saqlanadi. Ular orqali o'simliklarning tuzilishi va tashqi ko'rinishi o'rganiladi.



1. Gerbariy nima?
2. Nima uchun o'simliklarni quruq ob-havoda yig'ish muhim?
3. Gerbariy tayyorlash uchun o'simliklarni qanday to'g'ri quritish kerak?
4. Gerbariyni bezash uchun qanday materiallar kerak bo'ladi?
5. Nima uchun har bir o'simlik ostiga unga tegishli ma'lumotlarni yozib qo'yish muhim?



Bog' yoki xiyobonlardan beshta turli barg yoki gul namunalarini yig'ing. Ularni uyda quriting va o'z gerbariyingizni tayyorlang. Yig'gan o'simliklaringiz haqida ma'lumotlar to'plang.

